

NOROZILIK AKTINI YUZAGA KELTIRUVCHI VOSITALARNING LINGVISTIK ASOSLARI

<https://doi.org/10.70728/conf.v2.i02.012>

Toshpulatova Gulhayo Azamat qizi
Navoiy davlat universiteti
O'zbek tili va adabiyoti fakulteti

Annotasiya: Ushbu tezisda "Norozilik aktini yuzaga keltiruvchi vositalarning lingvistik asoslari" tadqiqot doirasida batafsil yoritildi. Norozilikni ifodalovchi vositalar sistem -struktur metod asosida tasniflanib, yuzaga kelishiga sabab bo'luvchi diskursiv holatlar keng o'rganildi.

Kalit so'zlar: norozilik akti, lingvopragmatika, aksiolingvistika, ekspressivlik, emotsional ton, kommunikativ niyat.

Kirish (Introduction)

Til – inson tafakkuri, hissiyoti va ijtimoiy munosabatlarining in'ikosi sifatida shaxsning ijtimoiy pozitsiyasini ifodalash vositasidir. Norozilik akti esa kommunikativ faoliyatda shaxsning norozi kayfiyati, e'tirozi, qarshiligi yoki salbiy munosabatini ifodalovchi nutqiy hodisadir. So'nggi yillarda lingvopragmatika, aksiolingvistika va lingvomanaviyatshunoslik doirasida norozilik aktining o'rganilishi antroposentrik omilga yo'naltirilgan yondashuv ekanligini ko'rsatmoqda

Metodlar (Methods)

Tadqiqotda deskriptiv, an'anaviy, sistem-struktur, kontekstual-analitik, pragmatik tahlil va aksiolingvistik yondashuvlardan foydalanildi. Asosiy manba sifatida o'zbek tilidagi badiiy matnlar, publitsistik chiqishlar hamda kundalik muloqot namunalaridan olingan norozilik ifodalari tahlil qilindi.

Natijalar (Results)

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, norozilik aktini yuzaga keltiruvchi vositalar quyidagi turlar asosida tasniflanib, keng tadqiq etilgan.

1. Leksik vositalar
2. Sintaktik vositalar
3. Ekspressiv-stilistik vositalar
4. Pragmatik vositalar
5. Morfologik vositalar
6. Frazologik birliklar va maqollar vositasida
7. Estetik predikatlar

8.Paralingvistik vositalar

9.Diskursiv birliklar

Norozilik aktini ifodalanishi diskurs nuqtayi nazaridan ham bir necha holatlarda namoyon bo'lishi yaqqol ko'zga tashlanadi.

A.Ochiq (explicit) -yashirin (implisit)

B.Verbal -noverbal

C.Ijobiy -salbiy

D.Og'zaki -yozma

E.Munoza ,miting-ommaviy chiqishlar ko'rinishida ifodalanadi.

Munozara va xulosa (Discussion & Conclusion)

Norozilik aktining lingvistik asoslarini aniqlash shuni ko'rsatadiki, bu aktning samaradorligi faqat grammatik yoki leksik vositalar bilan emas, balki ularning sotsiolingvistik,aksiosemantik va pragmatik uyg'unligi bilan ham ahamiyatlidir.. Shuningdek, norozilik ifodasida milliy mentalitet, madaniy kod va axloqiy me'yorlar ham muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot natijalari o'zbek tilidagi kommunikativ xatti-harakatlarda shaxsning ijtimoiy-axloqiy pozitsiyasini yoritishda yangi imkoniyatlarni ochib berdi.O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, norozilik akti lingvistik nuqtai nazardan ko'p qirrali va kompleks hodisa bo'lib, uni yuzaga keltiruvchi vositalar bir necha qatlamlarda namoyon bo'ladi.

Birinchidan, leksik darajada norozilikni ifodalovchi birliklar turli so'z turkumlari orqali amalga oshadi. Xususan, fe'llar (yoqtirmoq, e'tiroz bildirmoq, rad etmoq), sifatlar (og'ir, noqulay, yaramas), otlar (norozilik, g'ashlik, dard) hamda modal birliklar (kerak emas, shart emas) ,bog'lovchilar(ammo,lekin,biroq)adresant pozitsiyasini bildiruvchi asosiy vositalardir.

Ikkinchidan, morfologik darajada ayrim affikslar, jumladan, -a, -da, -chi, -mi,-ku qo'shimchalari turli darajadagi norozilik ohangini kuchaytirish, istehzoni ifodalash hamda pragmatik ma'no yuklashda xizmat qiladi.

Uchinchidan, sintaktik darajada norozilik akti ko'pincha ritorik so'roq, inkor gaplar, undovli tuzilmalar, tazodli sintaktik birliklar yordamida yuzaga keladi. Bu esa norozilikning grammatik jihatdan ham mustahkamlanganligini ko'rsatadi.

To'rtinchidan, semantik va pragmatik darajada norozilikning voqealanishi ko'p ma'nolilik, kinoya, istehzo, maqol va matallardagi majoziy ifodalar bilan chambarchas bog'liqdir. Kontekst bu jarayonda asosiy rol o'ynab, bir so'zning turli vaziyatlarda turlicha norozilik ma'nosini kasb etishiga imkon yaratadi.

Beshinchidan, onomastik qatlam ham norozilik ifodalashda alohida semantik yuk ko'taradi. Shaxs nomlari (antroponimlar), joy nomlari (toponimlar), suv nomlari (gidronimlar), kosmik jismlar nomlari (kosmonimlar), hayvon va o'simlik nomlari

(zoonim va fitonimlar) hamda diniy nomlar (teonimlar) norozilikni obrazli, badiiy va konnotativ tarzda kuchaytiruvchi vositalar sifatida xizmat qiladi.

Oltinchidan, paralingvistik va psixolingvistik omillar norozilikning nutqiy ifodasini kuchaytiradi. Intonatsiya, ohang, tana harakati, mimika, shuningdek, shaxsning psixologik holati va jamoa bilan yoki individual muloqotdagi xarakter xususiyatlari norozilik aktining pragmatik ta'sirchanligini belgilaydi.

Shunday qilib, norozilik aktining lingvistik asoslari leksik, morfologik, sintaktik, semantik, pragmatik, onomastik va paralingvistik qatlamlarning o'zaro uyg'unlashuvi natijasida yuzaga keladi. Ushbu hodisa nutqiy jarayonning ijtimoiy, madaniy va psixologik omillari bilan uzviy bog'liq bo'lib, tilning kommunikativ imkoniyatlarini yanada kengroq ochib beradi.

Bir so'z bilan aytganda, "Norozilik akti"ni yuzaga keltiruvchi leksik birliklarlar xoh ijobiy, xoh salbiy semantik maydon hosil qilsin, uning yadrosida insonning insonga ma'naviy, moddiy, mafkuraviy, jismoniy, ruhiy olamiga o'z ta'sirini, bosimini o'tqazish, o'z "men"ligini ifodalash yotadi.

Norozilik akti pragmatik, sotsiopragmatik, poetik, lingvopoetik, psixolingvistik, lingvistik, kognitiv xususiyatlarda ham namoyon bo'ladi.

Norozilik holatlari doimiy ravishda muammoli bo'lib, yechim talab qilmasdan, u o'z navbatida yangilikka va ezgulikka, xayrli amallarga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Madvaliyev A tahriri ostida. O'zbek tilining izohli lug'ati, Toshkent, 1981.
2. Jo'rayeva B. O'zbek xalq maqollarining lingvistik asoslari. Toshkent, Akademnashr, 2019.
3. Madayev O. Xalq og'zaki poetik ijodi. Sharq, Toshkent, 2010.
4. AHMEDOV BOTIRJON RAVShANOVICH. O'ZBEK TILIDA GENDER TADQIQI. Magistrlik dissertatsiyasi